




Namangan viloyati
Statistika boshqarmasi

NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI



2023- YIL
yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-mart

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'ortalash va har xil turdag'i vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar
ulushi –
66,2 %**

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
1 342,9
ming so'm

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
4 035,3
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi –
61,5 %**

**Ko'rsatilgan
bozor
xizmatlarining
o'sish
sur'atlari -
112,7 %**

Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlarning
o'sish sur'atlari –
110,2 %

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-mart




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko’rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o’z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **4 035,3 mlrd. so'mga** yetdi. Uning nominal hajmi **821,4 mlrd. so'mga** oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **112,7 %** ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Dastlabki ma'lumotlar


2023- yil yanvar-mart

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-mart oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2022- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	4 035,3	112,7
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	217,5	129,4
Moliyaviy xizmatlar	813,8	128,0
Transport xizmatlari	682,7	107,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	589,7	101,5
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	98,8	102,1
Savdo xizmatlari	1 253,6	107,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	101,6	103,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	201,3	158,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	91,8	106,2
Ijara xizmatlari	63,4	88,8
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	114,2	100,9
Shaxsiy xizmatlar	257,6	100,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	37,9	99,0
Boshqa xizmatlar	101,1	104,5

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-mart

Taqqoslash uchun: 2023- yilning yanvar-mart oylarida Ta'lim sohasidagi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **158,6 %**. Nisbatan past Me'morchilik sohasidagi xizmatlarida kuzatilgan – **99,0 %**.



■ 2022- y.


□ 2023- y.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-mart

2023-yilning yanvar-mart oylarida transport xizmatlari hajmi **682,7** mlrd. so‘mga teng bo‘lib, ularning o‘sishi 2022- yilning shu davriga nisbatan **107,6 %** ni tashkil etdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagи xizmatlarning ulushi **16,9 %** ni tashkil etdi.

Turlari bo‘yicha transport xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-mart oylarida)



2023- yilning yanvar-mart oylariida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **86,4 %** dan yuqorini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-mart oylariida transport turi tomonidan ko‘rsatilgan xizmatlarning **92,0 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma’lumotlar

2023- yil yanvar-mart



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiylajmi savdo xizmatlarining ulushi **31,1 %** ni tashkil etib, bu **1 253,6 mlrd. so'mga** to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-mart oylarida ularning hajmi **1 036,7 mlrd. so'mga** yoki umumiylajmi hajmning **32,3 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2023-y.
yanvar-
mart

1 253,6
mlrd. so'm



1036,7 mlrd.
so'm



Hajmning
o'sishi

107,1 %

O'sish
sur'ati

109,3 %

2022-y.
yanvar-mart

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-mart

2023- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining beshdan to'rt qismini, aniqrog'i, **73,5 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **20,4 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **6,1 %** ni tashkil etdi.

**Savdo xizmatlarining tarkibi
(2023- yilning yanvar-mart oylarida)**



Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-mart oylarida chakana savdo ulushi **79,3 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-mart



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2023- yil yanvar-mart oylarida)

2023- yil yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **813,8** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-mart oylarida ularning hajmi **572,5** mlrd. so'mga teng bo'lgan.

2023- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **20,2 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-mart oylarida ularning ulushi **17,8 %** ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **241,3** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **128,0 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-mart oylarida ularning o'sish sur'ati **133,3 %** ni tashkil etgan.



Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-mart

Moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **92,1 %** ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **5,6 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiyligi hajmning **2,3 %** ni tashkil etdi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-mart oylarida)**

**Yordamchi moliyaviy
faoliyat**



**Sug'urta bo'yicha
xizmatlar**



Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-mart oylarida moliyaviy xizmatlar umumiyligi hajmning **91,1 %** ni sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

**Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar**

Sug'urta xizmatlarining ulushi **5,4 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **3,5 %** ni tashkil etgan .

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-mart



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2022- y.
yanvar-mart

163,7
mlrd. so‘m

119,3%

5,1 %

2023- y.
yanvar-mart

217,5
mlrd. so‘m

129,4 %

5,4 %




53,8 mlrd. so‘mga

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-mart

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2023- yil yanvar-mart oylarida ularning ulushi **93,4 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da



Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-mart oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **92,2 %** ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-mart

Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini rivojlantirish** – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamонавиј ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar

158,6 %

2022- yilga
nisbatan o'sish
sur'atlari

101,7 %

2022- y. yanvar-mart

201,3
mlrd. so'm

Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari
hajmi

130,3
mlrd. so'm

5,0 %

2023- y. yanvar-mart

Umumiy
hajmdagi ulushi

4,1%

2023- yilning yanvar-mart oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **201,3 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **5,0 %** ini tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **158,6 %** ni tashkil etdi.

Dastlabki ma'lumotlar


2023- yil yanvar-mart

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

**2023- y.
yanvar-mart**




91,8 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi

**2022- y.
yanvar-mart**




74,8 mlrd. so'm

2,3 %




**Xizmatlarning
jami hajmidagi ulushi**




2,3 %

106,2%



O'sish sur'ati



113,7 %

Dastlabki ma'lumotlar


2023- yil yanvar-mart




Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



2022- y.
yanvar-mart



2023- y.
yanvar-mart

Xizmatlar
hajmi




O'sish
sur'ati

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-mart


2022-yil yanvar-mart oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **17,2** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



2022- y.
yanvar-
mart

2023- y.
yanvar-mart



Yashash bo'yicha
xizmatlar



Oziq-ovqat va ichimliklar
bilan ta'minlash bo'yicha
xizmatlar

2023- yil yanvar-mart oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiyo'jajida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **82,3** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2022- yil yanvar-mart oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **81,9** % ni tashkil etgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-mart

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-mart oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2023- y.	2022- y.
Namangan viloyati	4 035,3	112,7	114,2
Namangan sh.	1 667,8	116,3	115,9
tumanlar:			
Mingbuloq	146,9	109,8	112,1
Kosonsoy	203,6	110,8	113,5
Namangan t.	210,1	112,2	113,2
Norin	179,8	110,5	115,2
Pop	253,3	108,7	112,9
To'raqo'rg'on	267,6	113,7	111,7
Uychi	235,2	108,9	113,1
Uchqo'rg'on	190,4	109,5	113,3
Chortoq	214,6	110,2	112,2
Chust	267,4	109,8	114,6
Yangiqo'rg'on	198,6	109,1	113,3


Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-mart



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2023- yil yanvar-mart oylarida)



2023- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiyligi hajmidagi eng katta ulushni Namangan shahri tashkil etdi – **41,3 %** (2022-yilning yanvar-mart oylarida – **40,0 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mingbuloq tumanida – **3,7 %** (2022- yilning yanvar-mart oylarida – **3,8 %**) qayd etildi.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-mart



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi



Hajmning o'sishi



O'sish sur'ati

2023- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **1 342,9** ming so'mga yetdi.

2022- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **110,2 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2022 - yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **1093,9** ming so'mni tashkil etgan.

2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish sur'ati **111,7 %** da qayd etilgan.

Dastlabki ma'lumotlar

2023- yil yanvar-mart



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug‘urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

2023- yilning 1- aprel holatiga ko‘ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumot
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni



2022- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o‘sishi

Ularning umumiyligi
sonidagi ulushi


Dastlabki ma’lumotlar

2023- yil yanvar-mart



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.


Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2023- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **61,5 %** ni tashkil etdi

2023- yilning 1- aprel holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2023- yilning 1- yanvar-mart holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **77,3 %** ga to'g'ri keldi.



Xizmatlar sohasi
statistikasi bo'limi
Tel.: 69-211-72-00

Dastlabki ma'lumotlar